



IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARNING DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI

To'xtamurotov Axmadali Muhammadali o'g'li

Andijon davlat texnika institute

"Menejment" kafedrası assistenti (PhD)

Karimjonova Marxabxon Ibroximjon qizi

"Iqtisodiyot va boshqaruv" fakulteti

"Bank ishi va auditi" yo'nalishi 3-kurs talabalari

+998 912886192 ahmadalitohtamurotov@gmail.com

Annotatsiya: *Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari hisob kitoblarning doimiy yo'ldoshi hisoblanadi. Lekin ularning to'lov muddatining oshib ketishi korxonalar moliyaviy holatiga katta ta'sir o'tkazadi. Shu maqsadda korxonalar faoliyatini yuritishda debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini to'g'ri boshqarish masalasiga alohida ahamiyat beriladi.*

Kalit so'zlar: *kreditorlik, kreditorlik, iqtisodiyot, moliyaviy tahlil, barqarorlik, raqobatbardoshlik, hisobot, milli moliya*

Bugungi globallashtirish sharoitida mamlakatimizda barcha sohalarda miqiyosida bir qator ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir sohada bugungi shiddat bilan rivoj topib borayotgan integratsiyalashuv jarayonida sifatli va raqobatbardosh tizim yaratish bo'yicha amaliy ishlar davom etirilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan moliyaviy islohotlarning yangi bosqichida milliy moliya tizimini mazmun-mohiyati va samaradorligi jihatidan davr talabiga mos ravishda rivojlantirish, mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash zarur.

Prezidentimizning "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" qaroriga asosan⁷⁵ moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohaları mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsad qilib belgilangan.

Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga o'tishi barcha tarmoqlarda debitorlik va kreditorlik qarzlarini chuquroq tahlil qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

⁷⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son



Debitorlik qarzni ahamiyati bo'yicha xorijiy olimlardan R. Kaplanning ta'kidlashicha, debitorlikni boshqarish korxonaning Credit Policy siyosati bilan bevosita bog'liq bo'lib, noto'g'ri kredit siyosati likvidlikni pasaytiradi⁷⁶.

Yana bir mashxur iqtisodchi olim Harrisoni ta'kidlashicha, debitorlik qarzi bu korxona mijozlardan undirilishi kerak bo'lgan qisqa muddatli aktivdir, u balansda "Current Assets" tarkibida aks ettiriladi⁷⁷ deb ta'kidlab o'tgan.

Kreditorlik qarzlar bo'yicha esa xorijlik olim J. Williamsning ta'kidlashicha, kreditorlik qarzlarining ko'pligi korxona uchun moliyaviy xavf tug'diradi, biroq to'g'ri boshqarilsa – "arzon moliyalashtirish manbai"ga aylanadi.

O'zbek olimlaridan A. Axmedovaning ta'kidlashicha, kreditorlik qarzi – bu korxonaning mol yetkazib beruvchilar, byudjet va boshqa tashkilotlar oldidagi qisqa muddatli majburiyatlaridir⁷⁸.

Demak, debitorlik va kreditorlik qarzlarining xo'jalik yurutuvchi subyektlardagi ahamiyati yuqori, shu boisdan korxonalar tomonidan debitorlik va kreditorlik qarzlarini muntazam tahlil qilib borish zarur.

Ma'lumki, korxonalar o'rtasida bo'ladigan, kredit tashkilotlari va nazorat tashkilotlari o'rtasidagi hisob kitoblarda to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan vaqt bo'yicha farqlanishlar kelib chiqadi. Bunda korxona tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar kreditorlik majburiyatlari, olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar esa debitorlik majburiyatlar hisoblanadi. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlariga quyidagicha sharx berish mumkin. Qarshi tamonga to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar kreditorlik majburiyatlari, qarshi tamondan olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar debitorlik majburiyatlari deyiladi. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari hisob kitoblarning doimiy yo'ldoshi hisoblanadi. Lekin ularning to'lov muddatining oshib ketishi korxonalar moliyaviy holatiga katta ta'sir o'tkazadi. Shu maqsadda korxonalar faoliyatini yuritishda debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini to'g'ri boshqarish masalasiga alohida ahamiyat beriladi.

Umuman olganda, korxonalarning debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini o'rganishda moliyaviy tahlilning asosiy vazifalari:

- Debitorlik va kreditorlik qarzlarining yuzaga chiqish sabablarini o'rganish;
- Korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlar holatiga baho berish;
- Debitorlik va kreditorlik qarzlarining vujudga kelish muddatlari bo'yicha tasniflash;
- Kreditorlik qarzlarining tarkibiy tuzilishi va dinamik o'zgarishlariga baho berish;
- Debitorlik va kreditorlik qarzlarining aylanuvchanligiga baho berish;
- Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarining mavjudligini va ularni tugatish yo'llarini o'rganish;

⁷⁶ <https://hbr.org>

⁷⁷ <https://www.pearson.com>

⁷⁸ <https://tsue.uz>



➤ Qarzlarni kamaytirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni ko'rsatib berish va hakoza.

Yuqoridagi vazifalarni bosqichma bosqich bajarish korxona uchun kelgusida foyda olib kelishi mumkin, shu bilan bir qatorda korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlari riskini kamayishini ham belgilab berauvchi omil hisoblanadi.

Shuningdek, debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishi bo'yicha bir qancha omillarni sanab o'tish mumkin.

1. Korxonalar o'rtasida o'zaro hisob kitoblarda tomonlarning to'lov layoqatiga ega emasligi;

2. Tovarlarini ortib jo'natish va sotishda hisob kitoblarning zamonaviy shakllarining cheklanganligi;

3. Mulk va unga egalik qilishda mas'ullik hissining yo'qligi;

4. O'zaro shartnomaviy munosabatlarning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;

5. Daromadlarni tan olish yuzasidan korxonalar tarmoq xususiyatidan kelib chiqilmaganligi;

Bunday holatlarni bartaraf etish uchun quydagi takliflarni ko'rib chiqish kerak.

Birinchidan, Muddati o'tgan debitorlik qarzlari jarima qo'lash uchun zamonaviy usullaridan foydalanish. Kreditorlik qarzlarni olishda korxona o'z faoliyatini chuqur tahlil qilishi kerak.

Ikkinchidan korxonalar tomonidan moliyaviy hisobni xalqaro standartlariga o'tish jarayonini tezlashtirish, buni asosida korxonada faoliyat yuritayotgan ishchi xodimlarni bilim salohiyatini yanada oshirish zarur.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, budget tizimidagi debitorlik qarzlarni samarali boshqarish va ularni audit qilish orqali davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati yaxshilanadi. Moliyaviy tahlillar shuni ko'rsatadiki, subyektlarda ichki nazoratni kuchaytirish, hujjatlarni to'g'ri yuritish va muntazam audit o'tkazish orqali mavjud muammolarni bartaraf etish mumkin. Shu nuqtai nazardan, debitorlik va kreditorlik qarzlarni tekshirishning ichki standarti biznes jarayonlarini tartibga solish va ichki nazorat tizimlari samaradorligini oshirish uchun zarur vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Malikov T.S. Moliya: nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: “Nur Durdonalari”, 2021. – 296 c.

2. Malikov T. Moliya: amaliy jihatlar. O'quv qo'llanma. – T.: “Niholprint”, 2022. –428 b.

3. Ахунова Е. Финансы. Учебник. Часть I. – Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 320 c

4. Axmadali T. Milliy iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari va tahlili //Galaxy International Disciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 5. – S. 382-384.